

“TASDIQLAYMAN”

**O'zbekiston Respublikasi
Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi
Geologiya fanlari universiteti**



rektor _____

M. Isoqov

2023-yil “24” noyabr

**“KITOB GEOLOGIYA MILLIY TABIAT BOG‘I”
DAVLAT MUASSASASI**

Toshkent – 2023 yil

“Kitob geologiya milliy tabiat bog‘i” davlat muassasasi

NIZOMI

1 bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PQ-4766-son va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 2-sentyabrda 534-son, “Tabiatni muhofaza qilish davlat muassasasi shaklidagi Kitob geologiya milliy tabiat bog‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 4-mayda 339-son 2-ilovasida “Tabiat bog‘lari to‘g‘risida”gi namunaviy Nizomiga va 2023-yil 21-iyulda 302 - son “Davlat muassasalari to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlash haqidagi qarorlariga asosan ishlab chiqilib, “Kitob geologiya milliy tabiat bog‘i” davlat muassasasi (keyingi o‘rinlarda “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi deb yuritiladi) huquqiy maqomi, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, davlat muassasasini, uning filiallar va vakolatxonalari faoliyatini tashkil etish hamda nazorat qilish tartibini shuningdek, asosiy vazifalari, funksiyalari, uning hududi, rejimi va muhofazasini belgilaydi.

2. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi geologik, alohida ekologik va estetik ahamiyatga ega bo‘lgan tabiiy obyektlar va majmualarni tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda saqlab qolish hamda eko va geoturizmni rivojlantirish imkonini beruvchi umumdavlat ahamiyatiga ega muhofaza etiladigan tabiiy hudud hisoblanib, boshqaruv, ijtimoiy-madaniy yoki boshqa notijorat tushdagi vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organi yoki tashkiloti tomonidan tashkil etilgan hamda to‘liq yoxud qisman u tomonidan moliyalashtiriladigan yuridik shaxs bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi Geologiya fanlari universiteti tasarrufidagi huquqiy maqomiga ega davlat muassasasi hisoblanadi.

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, vimpeli, emblemasiga va mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, bank hisobvaraqlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga ega bo‘ladi.

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi belgilangan tartibda o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi va amalga oshirishi, shuningdek, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

3. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi hududiy yer maydoni – 3938,0 gektar bo‘lib, shundan, qo‘riqzona zonasi – 2221,0 ga, rekreatsiya zonasi – 400,0 ga, xo‘jalik maqsadlarida foydalanish zonasi – 1317,0 ga.

4. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi hududiga tegishli yer, suv, yer osti boyliklari, o‘simlik va hayvonot dunyosi, boshqa tabiat obyektlari va majmualar xo‘jalik yoki boshqa maqsadlarda foydalanishdan to‘liq yoki qisman olib qo‘yiladi va ulardan faqat unda belgilangan rejimga muvofiq foydalaniladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra, “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yishga alohida hollarda yo‘l qo‘yiladi.

6. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi hududi rejalar va dasturlarni, yer tuzish sxemalarini hamda hududiy rejalashtirishni, shuningdek, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishga doir boshqa rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinadi.

7. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi o‘z faoliyatini “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”, “O‘rmon to‘g‘risida”, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, boshqa qonun hujjatlari va ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiradi. O‘z hududidagi yerlardan O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, Hukumat qarorlari va tegishli qonunchilik hujjatlariga asosan foydalanish hamda tasarruf qilish huquqiga ega.

8. Boshqa tashkilotlar “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi hududida joylashgan tabiiy va tarixiy-madaniy majmualar, obyektlar hamda ularning nomlari va ramzlari aks etgan bosma, esdalik va tirajli mahsulotlar, shuningdek, boshqa tovarlarni faqat “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi bilan tuzilgan shartnomaga asosan ishlab chiqaradi.

2-bob. Davlat muassasasini tashkil etish va qayta tashkil etish

9. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining muassisi o‘zining qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi (qayta tashkil etiladi). Ushbu qarorda uning muassisi ko‘rsatiladi. Bunda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida tog‘-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-116-sonli Farmoniga muvofiq “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi Geologiya Fanlar Universiteti tarkibiga kiritildi.

10. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda faoliyat sohasiga tegishli bo‘lmagan uyushmalar (ittifoqlar) shaklidagi birlashmalar tuzishi va ularga a‘zo bo‘lishi mumkin.

11. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi qonunlarga, qonunchilik hujjatlariga, ushbu Nizomga va o‘zining nizomiga muvofiq faoliyat yuritadigan o‘z organlari orqali fuqarolik huquqlari va majburiyatlariga ega bo‘ladi.

12. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi, agar uni tashkil etish to‘g‘risidagi hujjatda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, faoliyat ko‘rsatish muddati cheklanmagan bo‘ladi.

13. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining (keyingi o‘rinlarda — Davlat aktiv agentligi) davlat muassasasini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi buyrug‘i mavjud bo‘lganda, davlat xizmatlari markazida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi davlat xizmatlari markazida uni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va qayta ro‘yxatdan o‘tkazish chog‘ida bir vaqtning o‘zida soliq va statistika organlariga hisobga qo‘yiladi.

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi.

14. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining nizomi hamda tashkiliy tuzilmasi muassis tomonidan, markaziy apparat va hududiy bo‘linmalari tuzilmalari muassis bilan kelishgan holda uning rahbari tomonidan tasdiqlanadi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat qarorlarida belgilangan hollar bundan mustasno).

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining markaziy apparati va hududiy bo‘linmalari tuzilmalariga, agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, zarur hollarda, uning rahbari tomonidan boshqaruv xodimlarining belgilangan umumiy soni doirasida o‘zgartirish kiritilishi mumkin.

Bunda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat muassasasining markaziy apparat va hududiy bo‘linmalarining shtatlar jadvali belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi yoki uning hududiy bo‘linmasida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Agar davlat muassasasi to‘g‘risidagi nizom normativ-huquqiy hujjat bilan tasdiqlanishi belgilangan bo‘lsa, nizom muassis tomonidan tasdiqlanishi talab etilmaydi.

15. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining davlat tilidagi to‘liq nomi - Tabiatni muhofaza qilish shaklidagi **“Kitob geologiya milliy tabiat bog‘i”** davlat muassasasi, ingliz tilida - State establishment **“Kitob geological national natural park”**, rus tilida – Государственное учреждение **“Китабский геологический национальный природный парк”**.

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining yuridik manzili: Qashqadaryo viloyati, Shaxrisabz shahri, Ipak yo‘li ko‘chasi 9 uy, indeks - 181300.

Geologiya tabiat bog‘i manzili: Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani, “Kuxsor MFY” Javuz qishlog‘i.

3-bob. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining maqsadi, asosiy vazifalari va funksiyalari

16. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi hududidagi asrlar davomida shakllangan noyob tabiat yodgorliklari, hamda devon davrida mansub xalqaro e‘tirof etilgan “Zinzilban” kesmasining geologiya yo‘nalishida tutgan o‘rni va mavqeyini mustahkamlash, hududning bio xilma-xilligini saqlab qolish, alohida ekologik, madaniy va estetik ahamiyatga ega bo‘lgan tabiiy obyektlar va majmualarni, tabiatni muhofaza qilish shaklidagi rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda foydalanish, eko va geoturizm salohiyatini rivojlantirishni ta‘minlash tabiiy landshaftni, yo‘qolib borayotgan hayvonot va o‘simlik dunyosi turlarini muhofaza qilish, o‘rganish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlash maqsadida tashkil etilgan.

17. Quyidagilar “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimida (ekologik tarmoqda) O‘zbekiston Respublikasi hududidagi biologik va landshaft xilma-xilligini ta‘minlash, ekologik muvozanatni saqlashda ishtirok etish;

rekreatsion, ilmiy va madaniy maqsadlarda tabiiy obyektlar va majmualardan oqilona va barqaror foydalanishni ta‘minlash;

atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish;

18. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimida (ekologik tarmoq) O‘zbekiston Respublikasi hududidagi biologik va landshaft xilma-xilligini ta‘minlash, ekologik muvozanatni saqlashda ishtirok etish sohasida:

hududdagi o‘simlik va hayvonot dunyosini saqlaydi;

tabiiy obyektlar va majmualar, geologik va tarixiy-madaniy meros hamda arxeologik obyektlarni saqlash rejimini ta'minlaydi;

tabiiy obyektlar va majmualar, jumladan, noyob va yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonlar turlarini qo'riqlash, takror ko'paytirish va himoya qilish, shuningdek, tog'-o'rmon ekotizimi o'simlik va hayvonot dunyosi hamda noyob geologik obyektlarni saqlash ishlarini tashkil etadi;

yuridik va jismoniy shaxslarning tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik talablari, tabiatdan foydalanishga doir normalar va qoidalarga rioya etilishini nazorat qiladi;

buzilgan tabiiy obyektlar va majmualarni qayta tiklaydi;

ekologik-ma'rifiy faoliyatni amalga oshiradi, aholi o'rtasida ekologik ta'lim-tarbiya ishlariga ko'maklashadi;

b) rekreatsion, ilmiy va madaniy maqsadlarda tabiiy obyektlar va majmualardan oqilona va barqaror foydalanishni ta'minlash sohasida geologiya tabiat bog'i hududida:

rekreatsiya, jumladan, ekologik turizm uchun sharoitlar yaratadi;

tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan barqaror foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi, ilmiy kadrlar, mutaxassislarni tayyorlashga ko'maklashadi;

xo'jalik subyektlariga tabiiy obyektlar va majmualardan barqaror, oqilona va maqsadli foydalanishga ko'maklashadi;

tabiiy obyektlar va majmualarni saqlash sohasida ilmiy faoliyatni amalga oshiradi;

mahalliy va xalqaro stratigrafik ustun (shkala)dagi muammolarni (bilimlarni) o'rganadi va ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi;

paleozoy kesmalarining paleontologik tavsiflarini kengaytirish, tog' kesmalariga zarar keltirmasdan barcha qadimgi hayvon turlari qoldiqlaridan muzey kolleksiyalarini boyitib boradi;

mahalliy va xalqaro stratigrafik shaklidagi muammolarni hal qilishda, xalqaro etalon va boshqa ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan geologik tabiiy meroslari (Zinzilban, Xo'jaqo'rg'on, Obi-Safit, Novobog' soylaridagi paleozoy erasiga oid kesmalar) saqlanishini ta'minlaydi;

hududdagi geologiya, stratigrafiya, litologiya, paleontologiya, paleografiya, ekologiya fani va amaliyoti uchun muhim bo'lgan barcha obyektlarni hisobga olish va ro'yxatini shakllantiradi;

mahalliy va xalqaro stratigrafik ustun (shkala)dagi paleozoy davriga oid muammolar to'g'risida anjumanlar (shu jumladan xalqaro) seminarlar, o'quv-amaliy kurslar, ekskursiyalar va boshqa ilmiy ahamiyatga doir tadbirlar tashkil etish orqali geologiya, ekologiya va boshqa soxaviy yo'nalishlar bo'yicha talabalar, ilmiy tadqiqotchilar va xodimlar malakasini oshirishda ko'maklashadi;

YUNESKOning global geoparklar tajribasi tavsiyasi asosida hududni rivojlantirish hamda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yadi;

v) atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish sohasida:

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining ayrim zonalarida ruxsat etilgan cheklangan xo'jalik va boshqa faoliyat ta'sirida bioxilma-xillik monitoringini, qo'riqxonada esa tabiiy jarayonlarining tabiiy kechishi monitoringini yuritadi;

monitoring ma'lumotlarini qayta ishlash va umumlashtirish maqsadida yuqori turuvchi va boshqa vakolatli organlarga taqdim etadi.

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi ushbu Nizom va boshqa qonun hujjatlariga ko'ra, boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

4-bob. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

19. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi quyidagi huquqlarga ega:

vakolatiga kiradigan masalalar hamda unga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan buyruqlar, ko'rsatmalar qabul qilish, zarur bo'lganda, boshqa davlat tashkilotlari bilan birgalikda tegishli qarorlar qabul qilish;

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vakolatiga kiradigan masalalarda davlat organlari va tegishli tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi vakolatiga kiradigan masalalarda belgilangan tartibda sudlarga arizalar va da'volar kiritish;

agar qonunda belgilangan bo'lsa, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish va jarimalar solish;

qonunchilikda belgilangan tartibda byudjetdan tashqari jamg'armalarga ega bo'lish;

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi nomidan belgilangan tartibda shartnomalar tuzish;

davlat organlari va manfaatdor shaxslardan o'z vakolati doirasida zarur axborotlarni so'rash va olish;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

20. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi majburiyatlari:

o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni samarali bajarishi;

o'zi qabul qilgan qarorlar hamda buyruqlarni o'z vaqtida, sifati va to'liq bajarishi;

faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlar, chora-tadbirlar rejasi, "yo'l xaritalari" va boshqa dasturiy hujjatlar ijrosini samarali tashkil etishi va bajarishi;

o'ziga biriktirib berilgan mulklar, shu jumladan, ko'chmas mulklardan maqsadli foydalanishi;

o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalar doirasida fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi shart.

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasiga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

21. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi o'z majburiyatlari bo'yicha ixtiyoridagi mablag'lar bilan javob beradi. Bu mablag'lar yetarli bo'lmasa, agar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, muassis davlat muassasasining majburiyatlari yuzasidan subsidiar javobgar bo'ladi.

22. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi muassisning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

23. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining filiali va vakolatxonasi majburiyatlari bo'yicha ularni tashkil etgan muassis javob beradi.

24. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi davlat aktivlarini, shu jumladan, ularning tovar-moddiy boyliklari va boshqa mol-mulklarining but saqlanishi bo'yicha moddiy javobgar hisoblanadi.

5-bob. Davlat muassasasi rahbarining huquqlari va majburiyatlari

25. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining rahbari Geologiya fanlari universiteti Rektori tomonidan chiqarilgan buyruq asosida tayinlanadi va ozod etiladi.

26. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining ma'muriy boshqaruv xodimlari (bosh hisobchi, ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari) Geologiya fanlari universiteti Rektori bilan kelishilgan holda Geologiya tabiat bog'i rahbari tomonidan tayinlanadi va ozod etiladi.

27. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining rahbari quyidagi huquqlarga ega:

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish;

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi xodimlari bilan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish;

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining mulki, uskunalari, moddiy va boshqa qimmatbaho boyliklari himoya qilinishini tashkil etadi;

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi xodimlari bajarishi shart bo'lgan buyruqlarni qabul qilish hamda ko'rsatmalar berish;

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko'rsatish.

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining rahbari qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

28. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining rahbari:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan davlat muassasasiga yuklangan vazifa va funksiyalar bajarilishini tashkil etishi;

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishini tashkil etishi va nazorat qilishi;

davlat siriga oid ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilishi;

o'z faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlari, davriy ish rejalari va faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlari hamda mezonlariga so'zsiz erishilishini ta'minlashi;

faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlar, chora-tadbirlar rejasi, "yo'l xaritalari" va boshqa dasturiy hujjatlarni samarali amalga oshirishi;

fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishi shart.

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining rahbari qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham bajaradi.

29. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari (geologiya bo'limi boshlig'i):

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari geologiya tabiat bog'i direktoriga buysunadi hamda rekreatsiya faoliyati amalga oshirilishini va bioxilma-xillik monitoringi yuritilishini tashkil etadi, shuningdek, aholi o'rtasida ekologik ta'lim va ma'rifat ishlariga ko'maklashadi;

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining ilmiy-tadqiqot faoliyatini ta'minlaydi hamda ilmiy aloqalarini tashkil etadi;

30. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi qo'riqlash (inspeksiya) bo'limi boshlig'i:

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi qo'riqlash (inspeksiya) bo'limi boshlig'i "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi direktoriga buysunadi hamda Geologiya tabiat bog'i qo'riqlanishini tashkillashtiradi va undagi tabiiy obyektlar va majmualardan foydalanish hamda ularning muhofazasini nazorat qiladi;

qonunchilikda o'rnatilgan tartibda qurollar, o'q-dorilar, formalı kiyim-kechaklar, aloqa vositalari, mahsus aslaha-anjomlarning saqlanishi va foydalanilishini ta'minlaydi;

aybdorlarni javobgarlikka tortish hamda tabiat bog'i qo'riqlash xodimlarining ma'muriy javobgarlik choralari to'g'ri qo'llashini tekshiradi va ularga doir materiallarni tegishli organlarga taqdim etadi;

“Geologiya tabiat bog'i” davlat muassasasining yerdan foydalanish masalalari hal etilishini ta'minlaydi.

31. “Geologiya tabiat bog'i” davlat muassasasi to'g'risida asosiy ma'lumotlar uning pasportida bayon etiladi. “Geologiya tabiat bog'i” davlat muassasasi pasportidagi ma'lumotlar ro'yxati va uni yuritish tartibi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

32. “Geologiya tabiat bog'i” davlat muassasasi boshqaruv rejalari va yillik ish rejalari asosida faoliyat yuritadi. Boshqaruv rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

33. “Geologiya tabiat bog'i” davlat muassasasini hamkorlikda boshqarishga aholini jalb qilish, xo'jalik faoliyatiga cheklovlar belgilash, rekreatsiya infratuzilmasini, chorva uchun pichan o'rish va o'tlatish joylarini tashkil etish hamda geologiya tabiat bog'i faoliyati bilan bog'liq boshqa muhim masalalarini hal etish maqsadida mahalliy davlat hokimiyati organlari qaroriga muvofiq unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari va fuqarolardan iborat maslahat komissiyasi tuziladi.

Maslahat komissiyasining tarkibi, vakolatlari, uni shakllantirish va faoliyat yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi Geologiya fanlar universiteti hamda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining hududiy organlari bilan kelishilgan holda “Geologiya tabiat bog'i” davlat muassasasi tomonidan belgilanadi.

34. “Geologiya tabiat bog'i” davlat muassasasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi va uning hududiy organlariga atrof-muhit monitoringini yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududning davlat kadastrini belgilangan tartibda beg'araz asosda taqdim etadi.

6-bob. Muassisning huquq va majburiyatlari

35. Muassis quyidagi huquqlarga ega:

“Geologiya tabiat bog'i” davlat muassasasi vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qarorlar, buyruqlar va ko'rsatmalar chiqarish, zarur bo'lganda, boshqa davlat tashkilotlari bilan birgalikda tegishli qarorlar qabul qilish;

“Geologiya tabiat bog'i” davlat muassasasining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari, davriy ish rejalarini va faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini tasdiqlash, ularning natijadorligini muntazam tanqidiy tahlil qilish, majlislarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, hisobot yakunlari bo'yicha zarur choralar ko'rish, bajarilishi yuzasidan nazoratni ta'minlash;

agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, “Geologiya tabiat bog'i” davlat muassasasining rahbari bilan mehnat shartnomasini tuzish yoki tuzilgan mehnat shartnomasini mehnat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda muddatidan oldin to'xtatish;

“Geologiya tabiat bog'i” davlat muassasasining rahbarini tayinlash, jumladan, qonunchilikka asosan tanlov natijalari bo'yicha tayinlash, mehnat qonunchiligiga muvofiq u bilan mehnat shartnomasini tuzish;

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining ortiqcha, foydalanilmayotgan yoxud belgilangan maqsadda foydalanilmayotgan mulkini olib qo‘yish va belgilangan tartibda tasarruf etish;

o‘z tarkibiga kiradigan tashkilotlarga tegishli davlat ko‘chmas mulki obyektlarini bir davlat tashkilotidan boshqa bir davlat tashkilotiga operativ boshqaruv huquqi asosida o‘tkazish to‘g‘risida Davaktiv agentligi bilan kelishuvga ko‘ra qaror qabul qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qonunchilik hujjatlariga muvofiq “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasini qayta tashkil etish yoki tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

tugatilayotgan davlat muassasasi kreditorlarining talablari qondirilganidan keyin qolgan mol-mulklarini olish;

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining mulkiga oid bitimlarni haqiqiy emas deb e‘tirof etish, shuningdek, “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasiga yetkazilgan zararlarni undirish to‘g‘risida ushbu “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi rahbariga nisbatan sudga da‘vo arizasi kiritish.

Muassis qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

36. Muassis:

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari, davriy ish rejalarini va faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari bajarilishi bo‘yicha hisobotini eshitishi va ularning bajarilishini doimiy nazorat qilishi;

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasiga berilgan davlat mulkidan maqsadli foydalanilishini va saqlanishini, shuningdek, uning begonalashtirilishini nazorat qilishi;

davlat mulki obyektlarini saqlash va bo‘sh turgan qismidan samarali foydalanishni tashkil qilishi;

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining o‘z majburiyatlari hamda tugatilayotgan davlat muassasasining majburiyatlari bo‘yicha ixtiyoridagi mablag‘lari yetarli bo‘lmagan taqdirda, uning xarajatlari qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan mablag‘lar, shu jumladan, byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan qoplab berilishi shart.

Muassisga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

7-bob. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining hududi va rejimi

37. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining hududi unga foydalanishga berilgan yer uchastkalarida joylashadi hamda tabiatni muhofaza qilish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar hisoblanadi. Shuningdek, qonunchilik hujjatlariga asosan boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli yer uchastkalarida joylashaishi mumkin.

38. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi hududi quyidagi zonalarga bo‘lingan:

qo‘riqxonalar zonasi;

rekreatsiya zonasi;

xo‘jalik maqsadida va boshqa tarzda foydalanish zonasi.

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi hududida undagi tabiiy obyektlar va majmualar holati, ularning rekreatsion, madaniy va estetik qiymati inobatga olingan holda, zonalarga bo‘linishga muvofiq tabaqalashtirilgan qo‘riqlash rejimi o‘rnatiladi.

39. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi zonalarining o‘lchamlari va chegaralari geologiya tabiat bog‘i ma‘muriyatining taqdimnomasiga asosan Kon-geologiya vazirligi

Geologiya fanlari universiteti tomonidan davlat ekologiya ekspertizasi xulosasi bo'yicha o'zgartiriladi.

40. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining qo'riqxonalar zonasida davlat qo'riqxonalari uchun nazarda tutilgan rejim o'rnatiladi. Ushbu zonada har qanday rekreatsion, xo'jalik va boshqa faoliyat turlari ta'qiqlanadi, bioxilma-xillik va tabiiy jarayonlarning tabiiy kechishi monitoringini yuritish, tabiiy obyektlar va majmualarni muhofaza qilish hamda takror ko'paytirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish bundan mustasno.

41. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining boshqa barcha hududida:

daraxt va butalarni kesish (parvarishlash va sanitariya maqsadidagi kesish bundan mustasno);

gidrologik va gidrogeologik rejimni o'zgartiradigan harakatlar;

tuproq eroziyasini, o'simlik va hayvonot dunyosining tanazzulini keltirib chiqaruvchi harakatlar;

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan yo'l va muxandislik-kommunikatsiya ishlarini amalga oshirish;

chiqindilarni saqlash va ko'mish, oqova suvlarni oqizish;

tirik organizmlarning yangi va kenja turlarini iqlimlashtirish maqsadida joylashtirish ta'qiqlanadi.

42. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining rekreatsion zonasi tartibga solinadigan (qisqa muddatli dam olish - jozibador joylarni tomosha qilish uchun) va davomiy dam olish zonalariga bo'linadi.

Rekreatsion zonada ushbu Nizomning 34-bandida belgilangan faoliyat turlaridan tashqari:

kimyo, sellyuloza-qog'oz va metallurgiya sanoati korxonalarining faoliyati;

zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash;

xarom o'lgan chorva mollar ko'miladigan joylarni tashkil etish ta'qiqlanadi.

43. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining tartibga solinadigan dam olish zonasida sayyohlik yo'lakchalari, noqulay ob-havo paytida yengil turdagi pana joylar, kuzatuv punktlari, tashrif buyuruvchilar uchun yoqilg'i zahirasiga ega bo'lgan gulxan yoqish joylari, sanitariya obyektlarini barpo etish orqali fuqarolarning qisqa muddatli dam olishi ta'minlanadi.

Mazkur zonada zarur hollarda, landshaftni saqlash va qayta tiklash maqsadida o'rmon xo'jalik ishlari amalga oshiriladi, rekreatsion faoliyatning ekotizimlar holatiga ta'siri o'rganiladi.

Tartibga solinadigan dam olish zonasida tabiiy landshaftni, o'simlik va hayvonot dunyosini, suv obyektlari va boshqa tabiiy obyektlar va majmualarni saqlash imkonini beradigan rekreatsion, ma'rifiy, estetik, tarbiyaviy, ilmiy va boshqa faoliyatga ruxsat beriladi.

44. Davomli dam olish zonasida kempinglar, mehmonxonalar, kichik mehmonxonalar, sayyohlik bazalari, sanatoriylar, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari, dam olish maskanlari, avtoturargohlar, savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish korxonalarini, shuningdek, sayyohlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha tabiat bog'i zimmasiga yuklangan vazifalar bilan bog'liq xo'jalik turidagi boshqa obyektlar joylashadi.

Ushbu zonada hududlar va dam olish maskanlarini obodonlashtirish, shuningdek, o'rmonchilik, tanazzulga uchragan uchastkalarni qayta tiklash, biotexnik va boshqa ishlarni amalga oshirish maqsadida tadbirlar amalga oshiriladi.

45. Xo'jalik va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan zonada yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan geologiya tabiat bog'ining tabiiy obyektlari va majmualariga zarar yetkazmaydigan darajada xo'jalik va boshqa faoliyat amalga oshiriladi. Bu yerda, shuningdek, aholi punktlari ham joylashishi mumkin.

Xo'jalik va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan zonada zararkunandalarga qarshi kurashishning biologik usullari va tuproqqa "nol darajada" ishlov berish usullarini qo'llagan holda, mazkur hududga xos bo'lgan an'anaviy qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtiriladi, shuningdek, ifloslantirmaydigan texnologiyalardan foydalanish asosida atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rioya etilgan holda, turli ishlab chiqarish obyektlarining faoliyat yuritishiga ruxsat beriladi.

46. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining barcha hududida ushbu Nizomning 34 va 35-bandlarida belgilangan faoliyat turlaridan tashqari hududdagi tabiiy obyektlar va majmualarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan faoliyatning boshqa turlari davlat ekologiya ekspertizasi xulosasiga asosan ta'qiqlanishi yoki cheklanishi mumkin, qo'riqxonalar zonasi bundan mustasno.

47. Qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rsatilgan ta'qiq va cheklovlar asosida yer uchastkalari geologiya tabiat bog'i hududida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslarga yer uchastkalarini saqlash vazifasi belgilanadi.

48. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi va zonalarining chegaralari tabiat bog'i va uning zonalarining rejimlari ko'rsatilgan axborot, ogohlantirish va chegara belgilari bilan belgilanadi.

49. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining faoliyat yuritishi uchun yo'llar, boshqa kommunikatsiyalar va inshootlar kurilishi zarur bo'lgan hollarda, buzilgan yerlarni majburiy tarzda rekultivatsiya qilish, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha majmuaviy tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

50. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining chegaralarida muhofaza etiladigan boshqa tabiiy hududlar (davlat tabiat yodgorliklari, buyurtma qo'riqxonalari, tabiat pitomniklari va boshqalar) joylashishi mumkin va ularning hududida ushbu muhofaza etiladigan tabiat hududlar uchun ko'zda tutilgan rejim belgilanadi.

8-bob. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining rekreatsion va ilmiy faoliyati, shuningdek, ekologik ta'lim va ma'rifat

51. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining rekreatsion va ilmiy faoliyati mazkur "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining hamda boshqa tashkilotlarning xodimlari va ayrim mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

52. Geologiya tabiat bog'ida, Kon-geologiya vazirligi Geologiya fanlari universiteti tomonidan tasdiqlanadigan ilmiy-tadqiqot dasturlari bo'yicha xalqaro stratigrafiya shkalasining regional bo'limlari, stratotip hajmlari va chegaralarini to'liqroq asoslash uchun "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi hududi va unga tutash hududlardagi paleozoy davriga oid yotqiziqnlarni tavsiflovchi tosh qotgan barcha organik qoldiqlar majmuasini aniqlaydi va o'rganish, tabiiy majmualar va obyektlar monitoringi bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot ishlari olib boriladi. Shu jumladan:

geologik kesmalardagi tosh qotgan hayvon qoldiqlari guruhini, O'zbekiston Respublikasi va chet eldagi turli ilmiy muassasalar hamda tashkilotlarining yetakchi mutaxassislari bilan uzviy hamkorlik asosida o'rganish;

geologik kesmalarni yuqori darajada biostratigrafik jihatdan ajratish asoslarini ishlab chiqish, ularni yanada aniqroq taqqoslash va olingan natijalarni belgilangan tartibda tashkilotlariga taqdim etish;

geologik yotqiziqlarni global taqqoslanishini yuqori darajasiga yetkazish maqsadida biostratigrafik tadqiqotlarning yangi usullarini yaratish, qo'llash;

global stratotip chegara nuqtasi joylashgan geologik kesmadagi quyi devonning "EMS" davri yotqiziqlarini to'liq paleontologik tavsifnomasini tuzish;

standart stratigrafik shkalasiga aniqlik kirituvchi biostratigrafik chegaralarini aniqlash;

paleozoy davridagi sedimentatsiya havzasi rivojlanishining fatsial-paleontologik va paleotektonik qonuniyatlarini aniqlash.

53. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasida rekreatsion faoliyat muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda bo'lishning qoidalari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasida rekreatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashrif markazi tashkil etiladi, yo'nalishlar, to'xtash maydonchalari, boshqa infratuzilma elementlari o'rnatiladi.

54. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi ilmiy faoliyatni amalga oshirish uchun geologiya tabiat bog'i ma'muriyati binosida ilmiy fondlar saqlanadigan joy, "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi hududida esa dala bazalari, kordonlar, ilmiy va bioxilma-xillik monitoringini yuritish infratuzilmalari bo'lishi lozim.

55. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining ilmiy fondlari muddatsiz saqlanishi kerak. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasida fondlarni saqlash uchun zarur sharoitlar, jumladan biologik kolleksiyalar fumigatsiyasi ta'minlanadi.

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi hududida olib boriladigan barcha ilmiy tadqiqotlarning dastlabki materiallari (yoki ularning nusxalari) hamda mazkur tadqiqot natijalari ushbu tadqiqotlarni amalga oshirgan subyekt toifasidan qat'iy nazar, tabiat bog'ining ilmiy fondlariga taqdim etilishi shart. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi ushbu materiallardan beg'araz asosda, qonunchilikka muvofiq intellektual mulklariga rioya etgan holda foydalanadi.

56. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasidagi biologik ko'zatuv va monitoring ishlariga O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining ilmiy-texnik kengashi, geologik ilmiy ishlar, ekologik ta'lim va ma'rifat ishlariga O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi Geologiya fanlari universiteti ilmiy-texnik kengashi uslubiy rahbarlik qiladi.

57. Geologiya tabiat bog'ida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va bajarish, shuningdek, ilmiy tadqiqot dasturlarini shakllantirish maqsadida ilmiy kengash tuziladi. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi ilmiy kengashining Nizomi va shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi Geologiya fanlari universiteti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

58. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi ta'lim va ma'rifat masalalari bo'yicha o'z ilmiy ishlari, materiallarini chop etishi mumkin.

59. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining bioxilma-xillik monitoringi atrof tabiiy muhit monitoringi doirasida olib boriladi.

9-bob. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasini qo'riqlash

60. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining qo'riqlash (inspeksiya) xodimlari "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasini qo'riqlaydi va geologiya tabiat bog'i hududidagi yuridik hamda jismoniy shaxslarning (joylashgan, istiqomat qiladigan) rejimga rioya etishini nazorat qiladi.

61. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining qo‘riqlash (inspeksiya) xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining qo‘riqxonasi hududiga kirish huquqini beradigan hamda geologiya tabiat bog‘ining boshqa zonalaridagi tabiat obyektlaridan foydalanish huquqini beradigan hujjatlarni tekshirish;

transport vositalarini tekshirish;

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi hududida huquqbuzarliklar aniqlanganda ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnomalar tuzish, ma‘muriy qo‘lga olish, buyum va hujjatlarni va tabiatdan noqonuniy foydalanish natijasida olingan mahsulotlarni olib qo‘yish, ma‘muriy jazoga tortish choralari qo‘llash;

aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish maqsadida materiallarni tegishli organlarga yuborish;

yuridik va jismoniy shaxslarning “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi hududida belgilangan rejimga rioya etish bo‘yicha faoliyatini tekshirish;

idoraviy o‘qotar qurol va maxsus vositalarni olib yurish va ulardan foydalanish, shuningdek, qonunchilikda belgilangan tartibda jismoniy kuch ishlatish hamda xizmat itlaridan foydalanish;

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi rejimini buzgan holda tabiatdan foydalanish, xo‘jalik va boshqa turdagi faoliyatni qonunchilikda belgilangan tartibda va hollarda to‘xtatish;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarini amalga oshirish.

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi qo‘riqlash (inspeksiya) xodimlarining huquqlari “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining qo‘riqlash (inspeksiya) xodimlari bo‘lmagan boshqa xodimlariga ham berilishi mumkin. Ushbu huquqlar xodimlarning roziligi bilan yozma arizasi asosida beriladi va direktorning buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

62. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining qo‘riqlash (inspeksiya) xodimlari uchun mo‘ljallangan o‘qotar qurollar va ularning o‘q-dorilari, maxsus vositalarning turi (modeli), soni, shuningdek, ularga egalik qilish, ularni saqlash, olib o‘tish, topshirish, qabul qilish va hisobga olish, ulardan foydalanish tartibi Kon-geologiya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Qo‘riqlash xodimlari maxsus vositalar, o‘qotar qurollar va ularning o‘q-dorilari bilan qonunchilikka muvofiq ta‘minlanadi.

63. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining qo‘riqlash (inspeksiya) xodimlari ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat inspektorlarining barcha huquq va imtiyozlaridan foydalanadi.

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining direktori va qo‘riqlash (inspeksiya) bo‘limi boshlig‘i ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha katta davlat inspektorlariga, “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining qo‘riqlash (inspeksiya) xodimlari esa ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat inspektorlariga tenglashtiriladi.

64. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining qo‘riqlash (inspeksiya) xodimlari tasdiqlangan dasturlarga muvofiq jangovor xizmat, ijtimoiy-huquqiy, ahloqiy-psixologik va jismoniy tayyorgarlik kurslarida o‘qitiladi.

Kurslar dasturi va o‘qitish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan kelishilgan holda, Kon-geologiya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

65. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining qo‘riqlash (inspeksiya) xodimlari bir xil namunadagi formal kiyim-bosh va farqlash belgilari bilan ta‘minlanadi.

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining qo‘riqlash (inspeksiya) xodimlari huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish, jumladan, tabiat bog‘i hududiga

jinoyatchi guruhlarning kirib kelishi va o'rnashib olishining oldini olish maqsadida qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya va Davlat xavfsizlik xizmatining hududiy organlari bilan hamkorlikda tadbirlar o'tkazadi.

66. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi hududini qo'riqlashga ekologik nazorat bo'yicha jamoatchilik inspektorlari ham jalb qilinishi mumkin.

10-bob. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining mulki va moliyalashtirish

67. Quyidagilar "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining mulki hisoblanadi:
muassis tomonidan davlat muassasasiga operativ boshqaruv huquqi bilan birlashtirilgan mulk;
mineral-xomashyo bazani rivojlantirish va qayta to'ldirishning yillik dasturi doirasida Kon-geologiya vazirligi bilan xo'jalik shartnomasi tuzish orqali moliyalashtiriladi;

fuqarolarning "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi hududiga kirish va tabiat resurslaridan foydalanishi uchun sotilgan chiptalardan olingan mablag'lar;

belgilangan tartibda undirilgan jarima mablag'lari;

musodara etilgan ovchilik qurollari va baliqchilik asboblarini realizatsiya qilishdan tushgan mablag'lar;

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasiga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash uchun hisob raqamiga tushgan mablag'lar;

ilmiy-tadqiqot, rekreatsion, tabiatni muhofaza qilish, reklama-noshirlik va ma'rifiy faoliyatdan olingan mablag'lar;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlari va boshqa institutlar, xorijiy tashkilotlarning grantlari doirasida tushadigan mablag'lar;

xalqaro loyihalar va dasturlarning grant mablag'lari;

talabalar va boshqa ilmiy xodimlarning o'quv amaliyotlaridan tushadigan mablag'lar;

mahalliy va xalqaro tadbirlardan (forum, konferensiya, seminar va b.) tushadigan mablag'lar;

turizm faoliyatidan tushadigan mablag'lar;

qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar hisobidan shakllantirilgan mulklar.

68. Geologiya tabiat bog'i mablag'larni Kon-geologiya vazirligi Geologiya fanlari universiteti tomonidan tasdiqlangan yillik biznes reja hamda daromadlar va xarajatlar smetasiga muvofiq mustaqil tasarruf etadi.

Geologiya tabiat bog'ida qonunchilikka muvofiq buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritiladi.

Agar ta'sis hujjatlariga muvofiq "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasiga daromad keltiradigan faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilgan bo'lsa, bunday faoliyatdan olingan daromad va bu daromad hisobidan sotib olingan mol-mulk "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining mustaqil tasarrufiga o'tadi va alohida balansda hisobga olinadi.

69. Tashkil etilgan "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasida davlat mulkini operativ boshqarish huquqi topshirish va qabul qilish dalolatnomasi "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi rahbari va muassis tomonidan imzolangan vaqtdan boshlab yuzaga keladi, qonunchilik hujjatlarida belgilangan xollar bundan mustasno.

70. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining mulki davlat muassasasi xodimlari o'rtasida taqsimlanishi mumkin emas.

71. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining mulki quyidagi hollarda qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda muassis bilan kelishgan holda tasarruf etiladi:

asosiy vositalarni sotish, hisobdan chiqarish (binolari va inshootlari, shu jumladan, qurilishi tugallanmagan binolari va inshootlaridan tashqari);

O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining hududiy bo'linmalari, qurilish sohasidagi loyihalashtirish tashkilotlari, maxsus litsenziyaga ega bo'lgan tashkilotlar hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining xulosasiga muvofiq yaroqsiz deb topilgan hamda vakolatli organlar tomonidan buzish to'g'risida qaror qabul qilingan ko'chmas mulk obyektlarini buzish;

O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi Geologiya fanlari universiteti roziligi bilan avtotransport vositalarini xarid qilish, bino va inshootlarni sotib olish va/yoki qurish;

mulkni "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi faoliyati maqsadlariga muvofiq bo'lmagan boshqacha tarzda tasarruf etish.

72. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining bino va inshootlari (shu jumladan, qurilishi tugallanmagan bino va inshootlari), avtomototransport vositalari hamda boshqa asosiy vositalarini sotish va ijaraga berish, shuningdek, ularga tegishli aksiyalarni (ulushlarni) sotish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda "E-auksion" elektron savdo platformasida auksion savdolari orqali amalga oshiriladi.

73. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining asosiy vositalarini hamda qurilishi tugallanmagan obyektlarini sotish yoki buzish quyidagi shartlardan biri mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlariga muvofiq sotiladiganlari bundan mustasno:

belgilangan xizmat muddatining tamom bo'lishi (to'liq yaroqsiz deb topilishi);

ularning jismoniy eskirishi, avariylar, tabiiy ofatlar, foydalanishning normal sharoitlari buzilishi oqibatida yaroqsiz holga kelishi;

ma'naviy eskirishi;

"Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasalari binolari qurilishi, kengaytirilishi, rekonstruksiya qilinishi, modernizatsiya qilinishi va qayta tashkil etilishi munosabati bilan bo'shab qolishi;

foydalanish zarurati bo'lmaganda.

74. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining operativ boshqaruvida bo'lgan mol-mulkdan foydalanishdan olingan hosil, mahsulot va daromadlar, shuningdek, "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining shartnoma bo'yicha yoxud boshqa asoslarda vujudga kelgan mol-mulki ham uning operativ boshqaruviga o'tadi.

75. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi o'z tarkibiga kiradigan tashkilotlarga tegishli ko'chmas mulkni bir tashkilotdan boshqa biriga operativ boshqaruv huquqi asosida o'tkazish to'g'risidagi qarorni Davaktiv agentligi bilan kelishuvga ko'ra qabul qiladi.

76. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasining ko'chmas mulk obyekti va bo'sh yer uchastkalari negizida amalga oshiriladigan davlat-xususiy sheriklik loyihalari to'g'risidagi ma'lumotlar davlat sherigi tomonidan tegishli bitim tuzilgandan so'ng o'n kun muddatda "Davlat mulki" axborot tizimiga kiritiladi.

77. Vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyat organlarining davlat ko'chmas mulki negizida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va ularning tizimidagi korxonalarga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritilishiga oid kelishuvlari (bitim, shartnoma, memorandumlar) bo'yicha majburiy tartibda Davaktiv agentligining xulosasi olinadi.

78. Shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi xodimlari soniga davlat ko‘chmas mulki obyektlarining ishchi xonalari maydoni hisob ko‘rsatkichlari mos kelishi lozim.

79. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi va uning hududiy organlari “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining operativ boshqaruv huquqidagi ko‘chmas mulkni xatlashi va majburiy realizatsiya qilishi mumkin emas, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

11-bob. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining filiallari va vakolatxonalari

80. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi muassis bilan kelishgan holda qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq yuridik shaxs tashkil etmasdan filiallar tashkil etishi va vakolatxonalar ochishi hamda ularni belgilangan tartibda yopishi mumkin.

81. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi filiallari va vakolatxonalari ularning muassisi nomidan tasdiqlangan nizomlari asosida faoliyat ko‘rsatadi va uni tashkil etgan muassis tomonidan mol-mulk bilan ta‘minlanadi.

82. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi filiali yoki vakolatxonasi rahbari davlat muassasasining rahbari tomonidan muassis bilan kelishgan holda tayinlanadi va uning ishonchnomasi asosida faoliyat ko‘rsatadi, qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, filial yoki vakolatxona rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to‘xtatilgan taqdirda, ishonchnoma “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi muassisi rahbari tomonidan bekor qilinadi.

12-bob. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi faoliyatining ochiqligi va oshkoraligi

83. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi fuqarolarning axborotni erkin izlash va olishga doir huquqlarini amalga oshirishlari uchun qonunchilikda belgilangan tartibda o‘z faoliyatining ochiqligi, oshkoraligi va hisobdorligini ta‘minlashi shart.

84. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi o‘z rasmiy veb-saytida o‘zining nomi, faoliyat turi, funksiya va vakolatlari hamda rahbarlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni joylashtiradi hamda ularning doimiy ravishda yangilab borilishini ta‘minlaydi.

Ochiq ma‘lumotlar portalida foydalanuvchilar uchun qulay formatlarda ko‘rish imkoniyatini yaratgan holda muassasaning yuqori turuvchi tashkiloti, ko‘chmas mulk obyektlari, qurilishi tugallanmagan obyektlari va avtotransport vositalari, rejalashtirilgan va amalga oshirilgan xarajatlar tarkibi haqidagi va boshqa ma‘lumotlarni (tijorat siri mavjud yoki cheklangan holda tarqatiladigan ma‘lumotlar bundan mustasno) e‘lon qilib boradi.

Davaktiv agentligining “property.davaktiv.uz” axborot tizimiga har chorak yakunlari bo‘yicha hisobot davrining keyingi oyi 25-sanasiga, yil yakunlari bo‘yicha esa keyingi moliya yilining 25-fevraliga qadar hisob obyektlarining joriy holati, shuningdek, moliyaviy ko‘rsatkichlari, jumladan, mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni kiritib boradi.

13-bob. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining faoliyatini nazorat qilish

85. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi ustidan davlat nazorati quyidagicha amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi - rejimga rioya etilishi, ilmiy faoliyat va monitoring olib borilishini nazorat qiladi.

Kon-geologiya vazirligi Geologiya fanlari universiteti - qonunchilikka muvofiq geologik ilmiy ishlarga va moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini nazorat qiladi.

86. Geologiya tabiat bog‘i rejimini buzishda ayblangan yuridik va jismoniy shaxslar o‘rnatilgan tartibda javobgarlikka tortiladi. Aybdorlardan Geologiya tabiat bog‘iga yetkazilgan zarar qonunchilikda belgilangan tartibda va miqdorda undiriladi.

87. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda har yili hisobot davri tugagach, muassisa va boshqa vakolatli organlarga “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi faoliyati to‘g‘risida hisobot taqdim etadi.

Daromad keltiriladigan faoliyat turi bilan shug‘ullanadigan “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi qonunchilikda belgilangan tartibda ichki audit xizmati joriy etiladi va tashqi audit o‘tkaziladi.

88. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda muassis va boshqa vakolatli organlar “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi rahbari zimmasiga yuklangan vazifalar samarali bajarilishi yuzasidan ularning faoliyati ustidan muntazam monitoring olib boradi, monitoring natijalariga ko‘ra “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi faoliyati samaradorligiga xolisona baho beradi.

89. Monitoring va baholash yakunlari bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga erishgan davlat muassasasining rahbariyati va xodimlari rag‘batlantiriladi yoxud yo‘l qo‘yilgan kamchiliklari uchun intizomiy javobgarlikka tortiladi.

90. Hujjatlarning saqlanishi va belgilangan tartibda saqlashga berilishi uchun “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi rahbari javob beradi.

14-bob. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasini tugatish

91. Davlat muassasasi quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

faoliyat ko‘rsatish muddati tugaganda;

uni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadga erishilganda;

tashkil qilish vaqtida qonunchilik hujjatlari talablari buzilishiga yo‘l qo‘yilganligi aniqlanganda;

sud “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni haqiqiy emas deb topganda;

agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, faoliyat ruxsatnomasiz (litsenziyasiz) amalga oshirilgan yoki qonunda taqiqlangan faoliyat amalga oshirilgan taqdirda, sudning qaroriga ko‘ra;

oxirgi olti oy mobaynida faoliyat ko‘rsatmayotgan bo‘lsa;

qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda.

92. Agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, muassis yoki “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasini tashkil qilish to‘g‘risida qaror qabul qilgan organ “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasini tugatish hamda tugatuvchini (vakilni) tayinlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

“Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda uni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingandan keyin olti oydan oshmagan muddatda tugatilishi zarur.

93. Tugatilayotgan “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hududdagi soliq organi tomonidan uning moliya-xo‘jalik faoliyati tekshiriladi, uning muddati o‘n kalendar kundan oshmasligi kerak.

Tekshirishda “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining oxirgi tekshirish o‘tkazilgan sanadan boshlab (agar “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasini tekshirish davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan boshlab amalga oshirilmagan bo‘lsa, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan boshlab) “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilinganligi haqida davlat xizmatlari markazi xabardor qilingan sanagacha bo‘lgan davr mobaynidagi moliya-xo‘jalik faoliyati qamrab olinadi, biroq ushbu davr uch yildan oshmasligi zarur.

94. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi tugatish to‘g‘risidagi qaror sud tomonidan qabul qilingan taqdirda, tugatuvchi (vakil) yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda tayinlanadi.

95. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi o‘z majburiyatlarini ixtiyoridagi mablag‘lar hisobiga bajaradi, bu mablag‘lar yetarli bo‘lmasa, uning muassasi tomonidan byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan belgilangan tartibda qoplab beriladi.

Bu mablag‘lar yetarli bo‘lmasa, uning muassasi tugatilayotgan davlat muassasasining majburiyatlari va huquqlarini qabul qiladi.

96. Tugatilayotgan “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining mablag‘lari kreditorlar talablarini qondirish uchun yetarli bo‘lmasa, kreditorlar o‘z talablarining qolgan qismini ushbu “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining muassasi hisobidan qondirish to‘g‘risida sudga da‘vo bilan murojaat qilish huquqiga egadirlar.

97. Tugatilishi belgilangan “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining mol-mulkklari kreditorlar talablari qondirilgandan keyin topshirish va qabul qilish dalolatnomasiga asosan muassisa o‘tkaziladi.

98. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasini tugatish ishlarining sifatli, to‘liq va o‘z muddatida amalga oshirilishi yuzasidan shaxsiy mas‘uliyat ushbu “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasining muassisiga yuklanadi.

99. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi tugatilganda, davlat xizmatlari markazlarida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan chiqariladi.

15-bob. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi xodimlarini moddiy rag‘batlantirish

100. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi xodimlariga qonunchilikda va qonun osti hujjatlarida belgilangan ko‘p yil ishlagani uchun qo‘shimcha haq, shuningdek, tuman va yuqori tog‘ ko‘effitsentlari to‘lanadi. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi xodimlariga lavozim majburiyatlarini bajarish munosabati bilan tabiat bog‘ining dala hududida bo‘lgan kunlari uchun qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda dala ta‘minoti to‘lab beriladi.

101. “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi xodimlariga O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, geologiya tabiat bog‘i vazifalarini bajarishda xodim o‘ziga tegishli mol-mulkdan foydalanganlik uchun amortizatsiya va ekspluatatsiya xarajatlari to‘lanadi. To‘lov miqdori va tartibi jamoa shartnomasi yoki agar u tuzilmagan bo‘lsa “Geologiya tabiat bog‘i” davlat muassasasi direktori va xodimlari o‘rtasida tuzilgan kelishuvga binoan belgilanadi.

102. "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasasi xodimlarini ularning xizmat burchi bilan bog'liq bo'lmagan vazifalarga jalb etish ta'qiqlanadi.

16-bob. Yakunlovchi qoidalar

103. Ushbu Nizom qoidalari qo'llanishi bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

104. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

105. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan ayrim turdagi "Geologiya tabiat bog'i" davlat muassasalarining alohida o'ziga xos xususiyatlari va huquqlari belgilanishi mumkin.

106. Geologiya tabiat bog'ini qattiqroq rejimli toifadan yengilroq rejimli muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toifasiga o'tkazish maqsadida qayta tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaroriga ko'ra, alohida hollarda yo'l qo'yiladi.

Direktor



N.X. Abdiyev

